

**MERONIMIYA, GRADUONIMIYA VA SINONIMIYANING O‘ZBEK VA INGLIZ
TILLARIDA IFODALANISHI**

Mustafayeva Sojida Ulashevna

Termiz muhandislik-texnologiya Instituti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11000601>

Annotatsiya. Maqolada so‘zlararo munosabatlarning, xususan, meronim, graduonomiya va sinonimlarning o‘zbek va ingliz tillarida leksik-semantik xususiyatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, manbalar tahlil etilgan. Bunda har bir leksik birliklarning chog‘ishtirilayotgan tillardagi ma‘no munosabatlarning vazifalaridan kelib chiqqan holda til bazaviy korpuslarini shakllantirish lozimligi haqida fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: meronim, butun-bo‘lak, graduonomiya, sinonim, leksik-semantik xususiyatlar, ma‘no munosabatlar, til lug‘aviy korpuslari.

**EXPRESSION OF MERONYMY, GRADUONYMY AND SYNONYMY IN UZBEK AND
ENGLISH LANG**

Abstract. The article analyzes the researches and sources of the lexical-semantic features of word relations, in particular, meronyms, graduonymy and synonyms in Uzbek and English languages. In this, opinions were expressed about the need to form language base corpora based on the functions of the semantic and lexical relations of each lexical unit in the languages being studied.

Key words: meronym, whole-part, graduonymy, synonym, lexical relations, semantic meanings, lexical language corpora.

**ВЫРАЖЕНИЕ МЕРОНИМИИ, ГРАДУОНИМИИ И СИНОНИМИИ В УЗБЕКСКОМ
И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ.**

Аннотация. В статье анализируются исследования и источники лексико-семантических особенностей словесных отношений, в частности, меронимов, градуономий и синонимов в узбекском и английском языках. При этом высказывались мнения о необходимости формирования корпусов языковой базы исходя из функций семантических отношений каждой лексической единицы в изучаемых языках.

Ключевые слова: мероним, целофрагмент, градуономия, синоним, лексико-семантические признаки, семантические отношения, лексические корпуса.

Kirish.

So‘z ma‘nosi nima? Leksik-semantik munosabtlar?

Leksemalar bu so‘zlar bo‘lib, leksik-semantik munosabat esa so‘z ma‘nolarini o‘rganadi.

Bunday ma'nolarni o'rganuvchi bo'lim tilshunoslikda semantika bo'lib, so'z ma'nolarini va uni ifodalovchi belgilarning tushuncha belgilarini izohlovchi soha hisoblanadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatlar o'ziga xos ahamiyatli o'rin tutadi. So'z ma'nolarini aniqlashda ikkita asosiy tamoyillarga asoslanamiz: boshqa so'zlarning boshqa so'zlar bilan munosabati; so'zlarning dunyoviy hodisasidagi o'rni; Bilamizki, an'anaviy holatda so'zlarning ma'nosini lug'atlar belgilab bergan qaysiki so'zlar faqat ma'no izohi berilgan; bugungi kunda so'zlar kengroq kengroq ya'ni bir dominant ostida iyerarxik struktura elementlari shaklida izohlanmoqada qaysiki davr tarraqiyoti mahsuli hisoblanadi. Insonning kognitivlik tushunchasi kengaygan sari lig'aviy dialket hodisasi ham avtomatik rivojlanib boradi. Biz bu yerda so'z ma'no munosabatlarining, unda asosiy vazifani bajaruvchi leksikonlar va uning konseptual mohiyatini izohlayadigan semalarni bir mikromaydon oastida birlashish bo'linishni nazarda tutmoqdamiz. So'z munosabat shuningdek, leksikal munosabat deb ham yuritiladi ya'ni bu munosabat so'zlar o'rtasidagi paradigmatic (o'xshashlik / bir xillik) munosabatni ifodalaydi. Tilshunoslik sohasidagi lisoniy birliklar o'zaro leksik-semantik munosabatlari meronimiya, graduonimiya va sinonimiya kabi paradigmalarda til birliklari ularning denotativ va konnotativ semalariga tayangan holda turlarga ajratiladi. Denotativ bu so'zlarning asosiy bosh qismi ya'ni obe'yktiv hisoblanadi, muloqatda vosita sifatida qo'llanadi; konnotativ esa o'sha so'zlashuv vositasi hisoblangan leksikokonlarning ma'noviy semasini anglatadi. Leksemalar tilda mustaqil harakatlanuvchi vosita, biroq ular til mikromaydon sathida ma'lum bir paradigmatic vazifani bajaruvchi leksikaviy munosabatlar ostida birlashadi, masalan, biz bilgan an'anaviy sinonimik yo ki yangi lug'aviy pog'onali struktura meronimik va graduonimik munosabatlar.

D.A. Kruz leksikaviy munosabtlar haqida ta'riflar ekan ularni umumiy birlashgan muvofiq munosabatlar ta'riflaydi.¹ R.Safarova fikriga ko'ra sinonim va antonimlarning alohida alohida leksik-semantik guruhlar (paradigmalar) ajratilishi tilda lug'at tizimining sistem xarakterga ega ekanligi va O'zbek tilshunosligining leksikologiya sohasida ham samarali ishlar shakllanganligini ta'kidlaydi. R.Safarova O'zbek tilshunosligida sistem-leksikologiyaning shakllanish va taraqqiyot yollarini quydagicha bosqichga bo'ladi. 1) so'z va leksemalar o'rtasidagi farq, semalar va ularni tarkibiy qismlarga ajratish usullari, ayrim so'z juftlarining semantik tarkibini (strukturasini) aniqlashda namoyon bo'ladi; 2) Sistem leksikologiyaning taraqqiyot bosqichi so'zlarni tematik va leksik-semantik guruhlariga birlashtirib, ma'noni tarkibiy qismlarga ajratib o'rganish orqali izohlanishni ta'kidlab o'tadi. Demak, so'z va uning atrofidagi qismli yoki ma'nodosh leksemalarning semantik iyerarxiyasini shakllantrish orqali leksikografik sohaning yanada

¹ D.A.Cruise.-Lexical-Semantics., Cambridge University Press., 1986.p. 85

kengayishiga olib keladi.

Muhokama va Natijalar.

Leksik munosabatlar: meronimiya, graduonimiya va sinonimiya.

Meronimiya kategorik hodisasini ifodalash va yaxshi isbotlangan leksikani tashkil etuvchi semantik munosabatlarning asosiy turlaridan biri sifatida dastlab tilga olgan ingliz va rus tilshunoslari Miller 1995, Lyons 1977, Cruse 1986, Aitchison 1987, Chaffin and Her Mann 1984, Nikitin 1988 va boshqalar.² O'zbek tilshunoslaridan R.Safarova "Leksik-semantik munosabatning turlari" qo'llanmasida qism-bo'lakli bog'lanishni partativ partonim shaklida giponim bilan leksik-semantik farqlarini aytib o'tadi; B.E.Qilichevning "O'zbek tilida partonomiya" dissertatsiyasida so'z ma'no munosabatlarining butun-bo'lak bog'lanish shakllari asoslangan. A.A.Eshmo'minovning "O'zbek tili korpuslari uchun taksonomik va meronimik munosabatli leksemalar lingvistik bazasini yaratish" monografiyasida taksonomik va meronimik (butun-bo'lak) munosabatlarni yangi zamonaviy yondashuv ya'ni til sistem korpusli bazasini yaratish va ularning tarkibiy paradigmatik ma'no qismlarga ajratib o'rganish lozimligi haqida aytib o'tadi. Inson ongida shakllangan belgi va shakl bu tilda so'z bilan izohlanadi va bu leksemalar tur xil kognitiv, mantiqiy ma'nolarni ifodalaydi. Butun-qismlik mantiqiy bog'lanish tizimi shular qatoriga kiruvchi hodisa hisoblanadi. Tabiiyki meronimik/partonomik hodisa bu "lug'at" hajmini yanada kengaytiradi qaysiki so'z taraqqiyot bosqichi inson kognitiv faoliyati tizimning keskin rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Meronimlar butunlik munosabatiga ko'ra turli xil shakllarga bo'linadi. Lyon va Kruz meronimlarni o'rganish yonalishiga ko'ra ikki turga ajratadi: "ixtiyoriy" va "zaruriy" turlarga. Masalan, majburiy meronimlar: kaft < qo'l; kaft so'zi tushib qolganda ham u qo'lning qismi bo'lib qolaveradi; ixtiyoriy meronimlar: divan < yostiq; yostiqcha divan ning ixtiyoriy qismi agar u tushib qolganda ham ular o'z vazifasini bajaradi. Agar biz meronimlarni graduonimiya va sinonimlar bilan solishtirganda, meronimlar murakkabroq hisoblanadi. Meronimlar sof meronim va qardosh meronim (komeronim)larga bo'linadi yuqoridagi misollar bunga asos bo'la oladi, masalan, bosh > tana, bosh bu tana ning tarkibiy qismi; tutqich(dasta) > eshik, tutqich bu eshikning qismi ammo usiz ham eshik vazifasini bajaradi. Meronimlar ingliz tilida xolonimlar bilan yonma yon o'rganiladi xolo-meronim shaklida xolonim -butun, meronim -qism; M.Lynne Murphy "Semantic relations and the lexicon. Antonymy, Synonymy and other Paradigmatics." aytadiki ba'zi so'zlar ham meronim ham sinonim shaklida kelsihini, masalan, flower \geq blossom³ ; sinonimlar turli fonologik so'zlar qaysiki bir xil yoki juda yaqin ma'nolarga

² N.kuzmenka.-Meronymic structures for names denoting parts of living beings in English.,Minsk State Linguistic University.

³ M.Lynne Murphy.-Semantic relations and the lexicon. Antonymy, synonymy and other Paradigmatics.-Cambridge University Press., p.37

ega yoki bir xil kesimlik ma'nolik munosabatdir. So'z mazmuni o'rtasidagi munosabatli sinonim sifatida so'zlarning aniq ma'no mazmunini ajratishni talab qiladi ba'zan ular o'rtasidagi munosabat ajralmasdir. D.Alan Kruz "Meaning in Language" sinonimlarni uch turga bo'ladi: to'liq sinonim (absolute): brave = courageous; calm = placid; muvofiq sinonimlar (propositional): fiddle = violin; yaqin ma'noli sinonimlar (near): entity = process; living thing = object; animal = plant; animal = bird; bunday sinonimlar tubdan semantik va darajalanish sinonimikka ega bo'lmasada ular semantik yaqinlik mavjuddir.⁴ Sinonimlar o'z semantik xususiyat, grammatik kategoriya, denotativ, kannotativ, emotsional, buyoqdorlik va boshqa xususiyatlariga ko'ra o'rganiladi va taqqoslanadi. Graduonomiya termini Grekcha tiliga tegishli bo'lib, "gradatio" - o'sish/ ko'tarilish va "onymo" - ism degan ma'nolarni anglatadi. Graduonomik munosabat so'zlarning darajalanish hodisasini aniqlashda ya'ni belgi/xususiyatlarning kamayishi yoki ozayishini ifodalaydi, masalan, uzun-o'rta-qisqa; kalta-kichkina-mayda; uzun-baland-katta;bo'ydor-novcha-kalta; uzoq-o'rta-yaqin; Dunyo olimlar J.Lokk, E.Sepir, L.M.Tolstoy, D.Yu.Apresyan, D.A.Kruz, Dj.Lyonz va O'zbek tilshunoslari O.Bozorov, S.G'iyosov, R.Rasulov, H.Ne'matov, Sh.Rahmatullayev, M.Fayzullayev, J.Jumabayevlar tilning turli sathlarida graduonomik hodisaning namoyon bo'lishini o'z ilmiy ishlarida asosiy ob'ekt sifatida o'rgananlar. O.Bozorov "O'zbek tilida darajalanish" tadqiqotida muallif lisoniy darajalanishni o'rganish asoslari, dialektika zamonaviy tilshunoslik va lisoniy darajalanishni o'rganishning metodologiyasi va shu kabi bir qator metodlar uyg'unligi masalalarini ko'rib chiqadi.⁵ J.Jumabayeva "graduonomiya", "graduonomik munosabat", "darajalanish" atamaları diyarli sinonimlar sifatida qo'llanishini to'g'risida fikr yuritadi.⁶ Graduonomik xususiyat so'zlararo ma'no munosabatlarning bir qismi hisoblanib, u sinonimik munosabat bilan tengma teng qo'yilib o'rganiladi qaysiki semantikaviy ma'no munosabatlari diyarli bir xil vazifani o'taydi ammo antonimil munosabat graduonomik semalar bilan teskari-zid munosabatni ifodalaydi. Demak, leksik munosabatlar meronim, sinonim va graduonomlar til birliklari oilasiga mansub bo'lsada, ular bir biri bilan tarkibiy element xususiyatlari bilan farqli holda izohlanadi.

Xulosa.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, leksik birliklar: meronim, sinonim va graduonomlar bu semantik munosabatlarga ega bo'lgan elementlar hisoblanib, meronim va graduonomlar tilshunoslik sohasi uchun tubdan yangi atamalar, masalan, meronimlar o'zbek va ingliz tillarida

⁴ D.A.Cruse.- Meaning in Language., Oxford of University.,2000., b. 176

⁵ J.Jumabayeva.- Turli tizimli tillarda leksik va stilistik graduonomiya.,Monografiya.-Toshkent "Mumtoz so'z",2017.,b.12

⁶ N.Abdullayeva.-Graduonomiya sohasining vujudga kelishi va uning tadqiqi.-"Ўзбекистонда хорижий тиллар" илмий-методик электрон журнал №5-6/2017

butun-bo‘lak iyerarxik munosabatni ifodalasa, sinonim ma‘noviy o‘xshashlik va graduonomiya so‘zlarning darajalanish ya‘ni ma‘lum bir xususiyatlarining yoki belgisining ozayishi,

ko‘payishini ifodalaydi, bu munosabat sinonimik munosabat bilan sema tarkibiy jihatdan yaqinroq/ o‘xshashroq hodisa sifatida birga tadqiq qilinadi. Meronim/partonim graduonomiyadan frqli holati bu uning faqat ot so‘z turkumlaridan, graduonomiya esa fe‘l, sifat, ravish, olmosh va hattoki yordamchi so‘zlardan ham yasalishmumkinligidir. Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, meronim/partonim butun domenant atrofida birikish, sinonim/graduonim o‘ng va chap tomonlarda salbiy - ijobiy bog‘lanishlar va boshqa LMG munosabatlarning leksik, semantik, paradigmatic munosabaatlari til lug‘aviy bazasini alohida korpus sifatida o‘rganish va yaratish muhimligini anglatadi.

REFERENCES

1. D.A.Cruse.-Lexical-Semantics., Cambridge University Press., 1986.p. 85
2. N.kuzmenka.-Meronymic structures for names denoting parts of living beings in English.,Minsk State Linguistic University.
3. M.Lynne Murphy.-Semantic relations and the lexicon. Antonymy, synonymy and other Paradigmatics.-Cambridge University Press., p.37
4. D.A.Cruse.- Meaning in Language., Oxford of University.,2000., b. 176
5. J.Jumabayeva.- Turli tizimli tillarda leksik va stilistik graduonomiya.,Monografiya.- Toshkent “Mumtoz so‘z”.,2017.,b.12
6. N.Abdullayeva.-Graduonomiya sohasining vujudga kelishi va uning tadqiqi.- “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнал №5–6/2017